



SHE`RIY TARJIMADA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Jo`rafo`ziyeva Zumradxon Qaxramonjon qizi

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti, 2401- guruh talabasi

Ilmiy rahbar :Makhsudova N.A.

(fil.f.d. (PhD))

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o`zbek she`riyatini tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik transformatsiyalar va bu o`zgarishlarga sabab bo`luvchi omillar pragmatik aspektda o`rganilgan. Shuningdek, poetik ifodaning saqlanishi va madaniy moslik masalalari ham misollar asosida ko`rsatib berilgan.*

Kalit so`zlar: *adekvatlik, tarjima transformatsiyalari, mumtoz adabiyot, g`azal, tragediya.*

Annotation: *This article examines semantic transformations that arise in the process of translating English and Uzbek poetry, as well as the factors causing these changes, from a pragmatic perspective. In addition, issues of preserving poetic expression and cultural equivalence are illustrated and analyzed through examples.*

Keywords: *adequacy, translation transformations, classical literature, ghazal, tragedy.*

Аннотация: *В данной статье в прагматическом аспекте рассматриваются семантические трансформации, возникающие в процессе перевода английской и узбекской поэзии, а также факторы, обуславливающие эти изменения. Кроме того, на основе примеров анализируются вопросы сохранения поэтической выразительности и культурной адекватности при переводе.*

Ключевые слова: *адекватность, переводческие трансформации, классическая литература, газель, трагедия.*

“Tarjima — bir tilda yaratilgan muayyan asarni o`zga bir xalq ma`naviy ehtiyojiga xizmat qildiradigan, undan badiiy zavq olish uchun imkoniyat yaratib beradigan kommunikativ vositadir” Badiiy tarjimalarda bu esa yaqqol aksini topar ekan, tarjimon tarjima masalalarini to`laqonli anglabgina qolmasdan, birmuncha ijodkorlik qobiliyatiga ham ega bo`lishi lozimligini tushunish mumkin. Negaki, badiiy asarni tarjima tiliga qayta namoyon etishda iste`dod, ilhom kabi mavhum unsurlarning ahamiyati va roli beqiyosdir. Shu bois, tarjimaning boshqa turlari (sinxron, ilmiy-texnikaviy, siyosiy-publisistik, axborot-analitik materiallar tarjimasini) bilan shug`ullanuvchi tarjimonlar tarjimaning eng murakkab hamda o`ta nozik turi hisoblanmish badiiy tarjimaga har doim ham qo`l urishga jurat etavermaydilar. Ilmiy matnlar tarjimasida kitobxonga muayyan xabarning asosiy mazmuni yetkazib berish tarjimaning maqsadini tashkil etsa, badiiy tarjimada – va ayniqsa uning yuragi bo`lmish she`riy tarjimada asar muallifining ichki kechinmalari hamda ruhiyatini asl

holicha saqlab qolish uning asosiy maqsadi hisoblanadi. O`zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Asqad Muxtor aytganidek, tarjimon - chizmakash emas, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, metonimik, transformatsiya usullari, implitsit (yashirin) ma`nolarni, eksplitsit (mufassal) bayon qilish yo`llari orqali muallif fikrini kitobxonga aniqroq yetkazishga intiladi. Ammo to`rt satr she`rdagi ohang va lirik kechinmani o`quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish yuqorida tilga olib o`tganimizdek, shoirona ilhom va mahoratni talab etadi.

Ingliz va o`zbek tillari grammatik tuzilishi, leksik va semantik jihatdan bir-biridan keskin farq qilishi, ikki xalq madaniyati, kelib-chiqishi, ijtimoiy holati, siyosiy mavqeyi ham bir-biriga sira o`xshamasligi barchaga ma`lum. Bu farq va tafovutlar, ayniqsa, tarjima jarayonida tez-tez ko`zga tashlanib turadi. Bunday holatda tarjimonga tarjima transformatsiyalari yordam beradi. "Tarjima transformatsiyalari orasida tarjimada transformatsiyaga asos bo`lib xizmat qiladigan so`z qo`shish, so`zni tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari asos qilib olinadi. Transformatsiyalar sonining kam bo`lishi tillarning bir-biriga yaqinligidan, transformatsiyalar miqdorining ko`pligi tillarning bir-biridan uzoq ekanligidan dalolat beradi.

Endi maqolaning asosiy maqsadi bo`lmish tahlil qismiga o`tsak. O`zbek adabiyoti va g`azal mulkinging sultoni bo`lmish mir Alisher Navoiyning "Ayt" radifli g`azali Q. Ma`murov va Leonid Kmetyuklar (2000-yil chop etilgan "Ummondan durlar" kitobida) hamkorligidagi tarjima qilingan.

Birinchi bayt :

Ey nasimi subh, ahvolim diloroming`a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandoning`a ayt.

Tarjima:

O breeze of dawn, go and describe my state to the one who is the joy of my heart,
Tell my beauty whose curls are black and whose face is as tender as a flower...

Ey tonging nafis shamoli, bor va mening ahvolimni yuragimning quvonchi bo`lgan bittasiga ta`riflab ber,
Ayt mening zulflari qora va yuzi guldek nozik go`zalimga.

"Ey nasimi subh" inglizlar uchun yaxshi tanish bo`lgan "O breeze of dawn"ga o`zgartirilgan (adaptation); Metafora o`xshatish san`atiga o`zgargan (modification); zulfning xushbo`yli, "qora zulf"ga o`zgartirilgan (modulation); "sarv" so`zi tushurilgan (omission).

Xuddi shunday tahlilni ingliz adabiyoti namunalarining o`zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ham ko`rib chiqamiz. Shekspirning ijod namunalaridan birini Maqsud Shayxzoda tarjimasini va undagi o`zgarishlarni aniqlaymiz. "Shekspir bepoyon" degan edi Gyote. Haqiqatdan ham Shekspir ijodi hanuz keng ko`lamda o`rganilmoqda. Uning

tragediyalari, komediyalari hamda sonetlari ko'plab xorijiy tillarga to'g'ridan-to'g'ri yoki vosita til orqali tarjima qilingan

“Hamlet” tragediyasidan:

... Soft you now!

The fair Ophelia! Nympe, in thy orisons

Be all my sins remember'd.

Misralani birma-bir o'rganamiz. “Tinchlan! Sohibjamol Ofeliya! Nimfa ibodatlarining mening gunohlarimni ham eslagin.” Bu so'zma-so'z tarjimadir. Bu yerda Hamlet sevgilisi Ofeliyani yunon xudosi Zevsning sohibjamol, zukko qizi Nimfaga qiyoslayapti. Endi esa o'zbek tarjimonlarimizning tarjimalariga nazar tashlaymiz.

Maqsud Shayxzoda tarjimasi:

...Endi bas, yetar!

Ofeliya! Quvonchim! Gunohlarimga—

O'z duolaringda kechirim tila, ey pari!

Ko'rib turganingizdek tarjimada “fair” ya'ni “sohibjamol”, “Nympe” — “Nimfa” tushirib ketilgan (omission); “ey pari”, “quvonchim” kabi undalmalar qo'shilgan (addition); so'nggi misra esa “ibodatlariningda gunohlarimni eslagin” emas, balki “duolaringda kechirim tila” shaklida o'zgartirilgan (modulation).

Tarjima jarayonida tarjimon ko'plab amaliy qiyinchiliklarga duch keladi. Bu kabi holatlar tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli, mutarjimdan har bir muammoli holat yechimiga ijodiy ravishda yondashuvni talab qiladi. Asliyatga ijodiy munosabatda bo'lish tarjimada asosiy ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki tarjimoni san'at darajasiga ko'tarish uchun avvalo adabiyotni, she'riyatni ixlos, muhabbat, fidoiylik bilan bilish va sevish kerak. She'riy tarjimada esa faqatgina til bilish ko'nikmalariga tayanibgina qolmasdan balki, ilhom, qolaversa, tug'ma iste'dod bo'lishi, ijodkorning san'atini qalban his qila olish ham muhim ekanligini chuqur anglab yetish tarjimon uchun zarur...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Deli Dennis. Twenty-one Ghazals Alisher Navoiy — Sommervil: Servena Barva Press, 2016. — 46 b
2. A. Navoiy. G'aroyib us-sig'ar, MAT, III jild. — Toshkent: Fan 1992. — 573 b.
3. G.,afurov I., Mo.,minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. — T.: Tafakkur Bo'stoni. 2012.217 b.